Ilyos HAITOV,
Arab tili va adabiyoti al-Azhar kafedrasi
stajor o`qituvchisi
O`zbekiston xalqaro islom akademiyasi

TILLARNING O‘ZARO TA’SIRINI O‘RGANISH VA ULARNING XUSUSIYATLARI

F.de Sossyurning eslatilgan butun til mexanizmi faqat o‘xshashliklar va tafovutlar atrofida aylanadi, degan qarashlariga ko‘ra, til (leksema)da borliqdagi narsa va hodisalar, ularning belgilari, miqdori, holati, harakati va o‘zaro munosabatlarida ko‘rinadigan ayrimlik, xususiylik hamda umumiylik bilan bog’liq ravishda ularning nomi bo‘lgan leksemalar ma’nolaridagi o‘zaro yaqin – o‘xshash va ayni vaqtda noo‘xshash-farqli jihatlarning dialektik birlikda mavjudligi namoyon bo‘ladi.[1]O‘zbek xalqining asrlar davomidagi orzusi – mustaqillikning qo‘lga kiritilishi va uning sharofati bilan yuzaga kelgan o‘zgarishlar o‘zbek tilshunoslarning oldiga ko‘plab muammolarni qo‘ydi.

Ma’lumki har bir tilning lug’at tarkibida boshqa tillardan O’tkan so‘zlar o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Chunki har qanday jamiyat o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida boshqa jamiyat bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatda bo‘ladilar[2]. “ Til xalq taraqqiyotining ajralmas hamrohidir”[3]. Boshqa tillar ta’siridan ajralib, ma’lum bir qobiqqa solib qo‘yilgan tilning o‘zi yo‘q.

Tillarning o‘zaro munosabatda bo‘lishi til taraqqiyoti jarayonining asosiy xususiyatlaridan biridir. “ Dunyodagi hech bir til o‘zining shishadan yasalgan qalpog’i ostida rivojlana olmaydi”[4].

Tillarda “o‘z” va “begona” so‘zlar bo‘lishining o‘z tildagi ichki va tashqi qismlarga ajratilishi to‘g’ri ekanligini ko‘rsatib turadi. Tildagi muhim o‘zgarishlar ichki va tashqi ko‘rsatgichlarning hosilasidir. Demak xalqlar doimo o‘zaro munosabatda bo‘ladilar. Bu xalq taraqqiyotining eng asosiy va zarur sharti hisoblanadi. Xalqlarning doimiy o‘zaro munosabatda bo‘lishi barcha tillarning o‘zaro aralashuvining sababidir. Tilning leksik qatlamining o‘zgarib borishida ichki va tashqi faktorlarning ta’siri sezilarlidir. Leksika tillarni bir – biridan farqlashdagi birinchi elementidir. Shu bilan birga harakatchan, tez qabul qilib olish xususiyatiga ega bo‘lgan til bo‘limidir.

[1] Shamsiddinov H. O’zbek tilida so’zlarning funksional semantik sinonimlari. –T., 2001. – B.3.

[2] Якубовский А.Ю. Избранные труды. Москва 1957.С. 7-6.

[3] Масковский М.М. Теория лексической абстракции. Москва, 1974. - С. 5.

[4] Обшее языкознание, форма сушествования, функция и история языка. - Москва 1970. С.10.

Leksika tillarning o‘zaro yaqinlashuvining omillaridan biridir. Tildagi so‘z o‘zlashtirish hodisasi, xalq tomonidan kirib kelganligi yangi hodisa, yangi tushunchalarni ifodalashning, o‘zlashtirilish ko‘rsatgichidir. Barcha o‘zlashma so‘zlar odatda yangi predmet yoki yangi voqealarning ifodalanishidan kelib chiqadi. Masalan, o‘zbek tilining lug’at tarkibida ham ko‘plab arabcha, forscha, ruscha, mo‘g’o‘lcha, turkcha va boshqa tillardan kirib kelgan o‘zlashma so‘zlarni ko‘ramiz. O‘zbek tilida o‘zlashma so‘zlarni lingvistik nuqtai – nazardan tadqiq o‘zbek hamda chet el – tilshunoslarining ko‘plab ilmiy izlanishlarida va asarlarida uchraydi. O‘zlashma so‘zlarning fonetik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini o‘rganish bir qancha olimlarning diqqatini o‘ziga tortgan. Turli guruhlarga mansub tillardagi o‘zlashma so‘zlarning u yoki bu xususiyatlarini ochib berish jarayonida, o‘zlashma so‘zning o‘ziga quyidagicha ta’rif berishadi: “**O‘zlashma so‘z** – bu chet tilidan ko‘chgan leksema bo‘lib, o‘zlashtiruvchi tilning fonetik, leksik – semantik, grammatik qobig’iga bo‘ysingan bo‘ladi. O‘zlashma so‘zlar haqidagi bu fikr boshqa olimlarning ishlarida ham ko‘rsatilib o‘tiladi. Inson nutqining ijtimoiy xarakteri, jamiyat taraqqiyotini ko‘rsatuvchi tarixiy faktlar bir til elementlarining boshqa til tomonidan o‘zlashtirilishi, bir tilning boshqa tilga ta’sir etishini ko‘rsatadi. Bu jarayon tilni lug’at tarkibida aniq ko‘zga tashlanib turadi. So‘zlar markaziy va chegara ma’nolaridan tashkil topadi.

So‘z gapdan tashqarida olinganda ko‘pincha qaysi ma’noda ishlatilsa, shu ma’no uning bosh yoki markaziy ma’nosi hisoblanadi. Qolgan ma’nolari ikkinchi darajali yoki yasama ma’nolari hisoblanadi. So‘zning bosh ma’nodan tashqari yana bir necha yasama ma’nolarga ega bo‘lishi so‘zlardagi ma’no taraqqiyoti qonunlariga asoslanadi. Ana shunday qonunlarga nom ko‘chish, ma’no kengayishi, ma’no torayishi va zidlashuvi hodisalari kiradi.

Ma’no kengayishi va ma’no torayishi ma’no sistemasining taraqqiyotiga xos hodisa bo‘lib, leksik ma’noning sifat va miqdor jihatlarini o‘z ichiga oladi. Ma’noning sifat jihatidan kengayishi va torayishi deganda, odatda so‘z ifodalagan bitta tushuncha hajmining torayishi va kengayishi ko‘zda tutiladi.

Ma’noning miqdor jihatidan kengayishi va torayishi esa ma’no tuzilishining kengayishi, torayishini ifodalaydi. Ma’noning miqdor jihatidan kengayishi leksik ma’nolarining yangi yasama ma’nolar hisobiga, avvalgiga nisbatan ortishi tushunilsa, ma’noning miqdor jihatidan torayishida so‘zdagi ayrim ma’nolarning chiqib ketishi hisobiga torayshi tushiniladi.

So‘zning ma’nolari qanchalik ko‘p bo‘lmasin, ular dastlab va keyin paydo bo‘lgan ma’nolarga bo‘linadi. So‘z ma’nosi o‘zgarishini o‘rganishda so‘zning ma’nolarini dastlabki va keyin paydo bo‘lganlarga bo‘lish katta ahamiyat kasb etadi. So‘zning dastlabki ma’nosi bu so‘zning haqiqiy ma’nosi bo‘lib, u boshqa ma’nolardan oldin vujudga keladi.

Shuni ham takidlab o‘tish kerakki, har qanday dastlabki ma’no bosh ma’no bo‘la olmaydi. Chunki so‘zning dastlabki ma’nosi yo‘qolib ketsa, o‘rniga kelgan keyingi ma’no bosh ma’no vazifasida kelishi mumkin. Masalan, ايكذأ so‘zi Navoiy davri tilida “ziyraklar”, “zakiylar” ma’nosida ishlatilgan. Keyinchalik esa so‘zning bu ma’nolari ishlatilishidan qolib, yangi “so‘z o‘yini musobaqasi” manosi vujudga kelgan. Azkiyo – askiya so‘zining keyin paydo bo‘lgan ma’nosi hozirgi o‘zbek tilida bosh ma’no hisoblanadi.

Uzoq davom etadigan taraqqiyot bosqichlarida so‘zning ma’nolari ham o‘zgarib boradi. So‘z ma’nolarining ba’zilari yo‘qolib ketish yoki jiddiy o‘zgarishlarga yuz tutishi mumkin. Bunday hodisalar avvalo, jamiyatda ro‘y beradigan kishilar hayot tarzining o‘zgarishlari natijasida yuzaga keladi. Turmushda yuzaga kelgan har qanday yangi hodisa va narsalarga yangi so‘z yoki atama qo‘yilavermaydi. Balki ularning mohiyati, vazifasidagi o‘xshashliklari asosida oldindan qo‘llanib kelinayotgan va ba’zi ma’nolarini yo‘qotgan so‘zlar qo‘llanishi mumkin: qalam –

qamish, qalam – karandash kabi . Umuman, har bir til xalq bilan birgalikda doimiy taraqqiyotda bo‘ladi va jamiyatda sodir bo‘ladigan barcha o‘zgarishlar uning qatlamlarida aks etmay qolmaydi. Ma’lum bir tilning leksikasi o‘sha tilda gaplashuvchi xalqning tarixini, boshqa xalqlar bilan bo‘lgan munosabatini aks ettiradi.

Muayyan adabiy tilning taraqqiy yo`llari, rivojlanish qonuniyatlarini belgilab olishda uning tarkibiga o`zlashgan so`zlarning salmog`ini aniqlash ham o`ziga xos ahamiyat kasb etadi. “Ilk devon”da arabcha so`z va birikmalar miqdorining ancha salmoqli ekanligi XV asr turkiy (o`zbek) tilining leksik tarkibi bir qadar murakkab ekanligidan dalolat beradi.

Turkiy tildagi so`z va iboralarini to`plash, ularni ilmiy o`rganish XI asrda yaratilgan “Devonu lug`otut turk” asariga borib taqaladi. Zero, lug`at muallifi Mahmud Qoshg`ariy o`z davridagi turli qabila-urug`lar tiliga mansub so`z va iboralarni yig`ib, ularni o`z asarida aks ettirgan. Bu haqda lug`atshunos shunday yozadi: “Men turklar, turkmanlar, o`g`uzlar, chigallar, yag`molar, qirg`izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko`p yillar kezib chiqdim, lug`atlarini to`pladim, turli xil so`z xususiyatlarini o`rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim. Ularni har taraflama puxta bir asosda tartibga soldim”. (Maxmud Qoshg`ariy)[5]. Tillarning o‘zaro ta’siri masalasi uzoq vaqtlardan buyon tilshunoslar diqqatini tortib keladi. Mahmud Qoshg’ariy, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburning asarlarida bu haqda dastlabki ma’lumotlar uchraydi. XX asrning ikkinchi yarmida tillarning o‘zaro ta’siri masalalari haqida lingvistik tadqiqotlar ancha ko‘paydi. Bu masalalar dastlab, hind – yevropa tillari materiallari asosida lingvistik izlanishlarda o‘z aksini topgan bo‘lsa, keyinchalik Osiyo va Afrika tillarining o‘zaro aloqasi masalalari tadqiqot obyekti bo‘ldi.

Tillarning o‘zaro ta’siri masalasini birinchi bo‘lib Uriel Vaynrax tomonidan atroflicha o‘rganilgan va tilshunoslikka “Tillarning o‘zaro ta’siri” atamasi kiritilgan[6]. Keyinchalik bu soha Ray.P.S, V.Gayli, T.Shuxard va boshqa olimlar tomonidan atroflicha yoritib berilgan. Tillarning o‘zaro aloqada bo‘lishlari haqidagi qarashlar bahsida Shuxard.T. va boshqa olimlar “tillarning aralashuvi” nazariyasini kiritdilar. Biroq, bu termin ko‘pgina tilshunoslarning etiroziga sabab bo‘ldi. Chunki, bu atamadan kelib chiqadigan lingvistik nazariya, xususan, ikki tilning grammatik qurilishi, aniqrog’i tillar morfologiyasining aralashib ketishi mumkin emasligi, shuningdek bu atamaning barcha tilshunoslar uchun tushunarli bo‘lmagani tufayli ko‘pgina tilshunoslar uni qo‘llashni rad etdilar. Biroq bu atama “Tillarning o‘zaro ta’siri” singari hozirgi kunda ham qo‘llanilib kelinmoqda.

Tillarning o‘zaro ta’siri masalasi lingvistlarni ko‘pdan buyon qiziqtirib kelayotgan masalalardan hisoblanadi. Keyingi yillarda bu sohadagi izlanishlar, asosan turli sistemali tillarning o‘zaro ta’siri masalasiga qaratildi. Tillarning o‘zaro ta’siri va so‘z o‘zlashtirish nazariyasidagi muhim o‘rinlardan biri shuki, ularda “adaptatsiya” va “assimilyatsiya” tushunchalarining chegarasi aniq ko‘rsatib beriladi. Bu tushunchalar o‘z o‘rnida so‘z o‘zlashtirishi diaxronik jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Keyingi yillarda chop etilgan Desheriyeva B.Yu, G. Klimov, B.I.Yartse va shu singari tilshunoslarning ilmiy ishlarida “adaptatsiya” va “assimilyatsiya” tushunchalari aniq tasnif qilib berilgan.

Adaptatsiya – har qanday o‘zlashma so‘zning o‘zlashtiruvchi til fonetik, Grammatik qurilishiga moslashishi hodisasi “**Assimilyatsiya**” – o‘zlashma va o‘z so‘z o‘rtasidagi farqlarni ikki tomonlama yo‘qolib boorish jarayoni. Bu jarayon o‘zlashma so‘zning o‘zga tilda nafaqat moslashishi, balki shu tilda yashab qolishiga yo‘l ochadi. Boshqa ishlarda esa, bu tushunchalarni lingvistik nuqtai nazardan aniqlash maqsadida qarindosh bo‘lmagan tildan

[5] Devonu lug`otut turk. I-III-tom. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi Mutallibov S..-T.:Fan, 1960-1963. T.1.-1960.-B.427.T.3.-1963.-B.466

[6] Вайнрах У.О. Семантическая структура языка. Языковые контакты. Киев 1979. С.107-189.

kirgan so‘zlarning adaptatsiya, assimilyatsiya darajasini va xarakterli xususiyatlarini ochib beradi.

O‘zlashma so‘zlar tilshunoslar tomonidan ikki tomonlama o‘rganib kelinmoqda. Xususan ba’zi tilshunoslar o‘zlashma manbaning shakily ishlovchi bilan cheklangan bo‘lsalar, boshqalar esa bu jarayonni mazmuniy va ifoda rejasi nuqtai nazardan o‘rganishini olg’a surdilar. Ikkinchi yo‘nalish masalani to‘la yoritish imkonini beradi. Shunday qilib, o‘zlashma so‘zlar ikki asosiy bosqichdan iboratdir.

1. Shakliy bosqich. Bu bosqichda o‘zlashma so‘z o‘zlashtiruvchi tilning tovush, orfografik, morfologik va so‘z yasalishi qoidalariga moslashadi.

2. Mazmuniy bosqich. Tillarning o‘zaro ta’siri hamisha o‘zining ijtimoiy sabablariga ega bo‘ladi. Bu sabablar tillarning boyishiga yordam beradi. Bu hodisa tilning uzviy taraqqiyoti singari uzviylik xususiyatiga egadir. Chunki, tillarning o‘zaro ta’siri jamiyat ehtiyoji taraqqiyotining obyektiv qonunlari asosida yuzaga keladi. Biroq tillarning o‘zaro ta’siri turli shakl, daraja va turli o‘lchovga ega bo‘ladi. Tillarning o‘zaro ta’siri darajasi jamiyat taraqqiyotining va xalqlar munosabatlarining darajasidan kelib chiqadi.

Tillarning o‘zaro ta’siri tarixi shuni ko‘rsatadiki, u asosan shu tilda gaplashuvchilarning taraqqiyot darajasiga, bu tillarning ijtimoiy vazifalari darajasiga bog’liqdir. O‘zlashmalar bir xalqning ikkinchi bir xalqdan nimanidir o‘rganganligini ko‘rsatuvchi belgidir.

Har qanday til “o‘z” va “begona” so‘zlardan iborat bo‘ladi. Bu so‘zlar xalq tili leksikasida o‘z aksini topadi. O‘zlashma so‘zlar tillar leksikasining boyishini asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. O‘zaro munosabat va uzoq muddat aloqada bo‘lish tilda aksini topmay qo‘ymaydi. Ayniqsa bu hodisa tilning eng harakatchan va ta’sirga tez beriluvchi qismi bo‘lmish leksikada juda aniq bilinadi. Biroq o‘zbek tilining leksikasi ilmiy jihatdan to‘la o‘rganib chiqilmagan. Chunki uzoq muddat leksikaga yordamchi bo‘lim sifatidagi qarashlar lingvistik tadqiqotlarda uning ahamiyatini chetga qoldirib ketishga sabab bo‘ldi. Leksika o‘zining tarkibiga ko‘ra juda xilma – xil va murakkabdir. Xususan o‘zlashma so‘zlarning lingvistik xususiyatlari ularning tilga kirib kelishi va tildagi yashovchanligiga ko‘ra turlichadir. Ma`lumki, har qanday milliy adabiy til o`zining tovushlar tizimi, so`z tarkibi, so`z birikmalari, lug`at boyligi va boshqa jihatlari bilan yagona tizimni tashkil qiladi, ammo bu butunlik, yaxlitlik favqulodda xilma-hillikni keltirib chiqaradi. Muayyan til tizimining lug`at boyligi e`tiborga olinsa, undagi yozma va og`zaki nutqqa xos til unsurlari bir-biridan farq etishini e`tiborga olish lozim. Shu bilan birga, yozma nutqga turlararo o`ziga xoslikning ham mavjudligini ko`zda tutish lozim. Nasriy nutq imkoniyatlari qaysi bir jihatlari bilan so`zlashuv nutqiga yaqinlashadi. Bunday nutq so`zlashuv nutqidan farqli o`laroq, poetikligi, nisbatan ko`tarinkiligi, ta`sirchanligi, muallif nutqida adabiy til me`yorlariga bo`ysunushi orqali ustunlikka ega bo`ladi.

O‘zbek tilining lug’at tarkibidagi o‘zlashma so‘zlar va so‘z birikmalarini o‘rganish, XX asrning 40-yillaridan boshlangan. Bu yo‘nalishdagi dastlabki urinish Fattoh Abdullayevning nomzodlik dissertatsiyasida o‘z aksini topgan bo‘lsa, keyinchalik bir qator ko‘zga ko‘ringan olimlarning ilmiy ishlarida ham shu sohaning ayrim qismlari o‘rganib chiqilgan. O‘zbek tilidagi o‘zlashma so‘zlarning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik – semantik xususiyatlarini tadqiq qilish E.Begmatov, A.R.Rustamov, B.Bafoyev singari olimlarning ilmiy izlanishlarida ochib berilgan. O‘zlashma so‘zlarning leksik – semantik xususiyatlari, o‘zbek tiliga arabcha o‘zlashma so‘zlarning kirib kelishi tarixi va uning sabablari singari masalalar F.Abdullayev, E.Begmatov singari olimlarning ilmiy asarlarida keng miqiyosda yoritilgan. Shuningdek, o‘zbek tili leksikasining taraqqiyot yo‘llari, uning etimologik tarkibi, o‘zbek tilidagi o‘zlashma va baynalminal so‘zlarning lingvisti xususiyatlarini o‘rganish. A.K. Borovkav, V.V.Reshetov, M.M.Mirzayev, N.G’ulomov, K.Yusupov singari tilshunoslarning

ilmiy ishlarida yoritib berilgan. Ushbu tadqiqot ishida hozirgi o‘zbek tilidagi arabcha o‘zlashma so‘zlarning semantik tuzlishidagi o‘zgarishlarni ochib berishga harakat qilingan. Ishda so‘zlarning o‘zbek va arab tilidagi ma’nolari taraqqiyotini komponent va qiyosiy tahlil qilish natijasida ularning semantik tuzlishidagi o‘zgarishlarni ochib berishga harakat qilinadi. Nazariy fikrlar hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti namunalaridan keltirilgan misollar bilan dalillandi.

Poeziya, ya’ni she`riy nutqda bunday holat kuzatilmaydi. She’riy nutq nasriy va so`zlashuv nutqi omistasidan iborat ekan, me`yorlashtirilganligi va boshqa sayqallantiruvchi unsurlarga boyligi bilan birmuncha afzallik kasb etadi hamda so`z tanlashdagi erkinligi bilan ajralib turadi.

“Adabiyot nazariya”sida she`riyat tiliga 4 tamoyil asosida tavsif berilgan:

– poeziya tilining adabiy jinslar va poetik janrlar tabiati taqazo etadigan o`ziga xos xususiyatlari;

– musiqiylik (asosan elementlar: ritm, qofiya, band, so‘z takrori, tajnis. Yordamchi elmentlar: intonatsiya, tovush takrori v.b);

– poeziya tilining o‘ziga xos stilistik vositalari, so‘z-harfiy o‘yinlar;

– poeziya tilining morfologiya va sintaksis bilan bog’liq bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlari va inversiya

Manbalarda o‘qtirilishicha, poetika “ifodaviy badiiy shakllar, xillar, vositalar va janrlar to‘g’risidagi fandir. U adabiy jins va janrlarni nazariy va qiyosiy jihatdangina emas, tarixiy va milliy jihatdan ham tadqiq etadi. Badiiy binobarin she’riy asar tilini jins va tadqiq, poeziya tiliga tarixiy va milliy jihatdan ilmiy yo‘sinda yondashish ham adabiyot nazariyasining vazifasiga kiradi. Poetika deyilganda she’riyatga xos bo‘lgan badiiylik ta’siriy-tasviriy vositalarnigina hisobga olish bir yoqlamalikka olib keladi. Keyingi davrlarda ana shunday yo‘ldan borildi, ya’ni ma’lum bir shoir yoki asar poetikasi degan yorliq bilan jinslar, janrlar, badiiy tasvir usullari yoritishga e’tibor qaratildi. Biroq asosiy holat – muayyan asarning poetikasini tashkil etuvchi asos mohiyat – til xususiyatlari e’tibordan chetda qola boshladi. Fikrimizcha poetika avvalo, til va unga tegishli bo‘lgan unsurlarni qamrab oladi, chunki har qanday janr va poetik vositalar til vositasida namoyon bo‘ladi. Zero, jins va janrning shakllanish, boshqacha aytganda, tanlanish jarayoni tilga bog’liq. Badiiy asar tilidagi turli unsurlar, ya’ni ta’sirchanlik, tasviriylik, jozibadorlik kabi xususiyatlar talabi janrning tanlanishiga turtki beradi.

H.Ne’matov va R.Rasulovlarning “O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari” nomli qo‘llanmasida leksemega “jamiyat a’zolari uchun tayyor, umumiy, majburiy bo‘lgan, shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan voqelikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, nutq va lug’atda grammatik morfemalarni o‘ziga biriktira oladigan morfema turi” deb ta’rif beriladi[7]. S.Usmonov o`zbek adabiy tilidan joy olgan leksema va so`z sifatida bu olinmalarning nutqdagi “faoliyati” xususida batafsil to`xtab o`tgan. Uning fikricha, o`zbek tilida “eroniy” so`zlarning kirib kelish davrini aniqlash mushkul bo`lgani holda, arabcha so`zlarning so`zlashuv va kitobiy nutqda, ayniqsa, badiiy nutqda namoyon bo`lish davri va sabablarini aniq aytish mumkin. Arab so`zlari o`zbek tilida VII-VIII asrlardan kira boshlaydi, deb hisoblash mumkin. Bunday holat arablarning O`rta Osiyoga kirib kelishi, o`zlari bosib olgan hududlarda islom dini va madaniyatini, ilm-fan va islomiy odatlarni ommalashtirilishi bilan bog`lanadi. Natijada, arab tili mahalliy tillar bo`lgan eroniy va turkiy tillarga katta ta’sir ko`rsatgan. Madaniy jihatdan o`zbek va tojik xalqining ota-bobolari o`z adabiyot va madaniyatlarini arab tili formasida yaratdilar. Mashhur mahalliy olimlar o`z asarlarini arab tilida yozdilar. Bu esa arab tilining imkoniyatini ancha yuqoriga ko`taradi. Ikkinchi tomondan, arab tilining boyligi ifodaliligi ilmiy terminlar yaratishda ancha qulay edi”[8].

[7] Ne’matov H., Rasulov R. O’zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – T.: O’qituvchi, 1995.37–B.

[8] Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o’zbek adabiy tili. –T.: Universitet, 2006. 122–B.